

**Parvozlarning xavfsizligiga xavf solishi mumkin boʻlgan faoliyatni amalga oshirish uchun
ruxsatnoma
PASPORTI**

1.	Ruxsat etish xususiyatiga hujjatning nomi:	Parvozlarning xavfsizligiga xavf solishi mumkin boʻlgan faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsatnoma
2.	Amalga oshirilishi uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish talab etiladigan faoliyat (harakatlar):	Parvozlarning xavfsizligiga xavf solishi mumkin boʻlgan faoliyatni amalga oshirish
3.	Ariza beruvchilar toifasi:	Yuridik va jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkor)
4.	Ruxsat etish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organ:	Oʻzbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi (“Oʻzaviatsiya” agentligi)
5.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar:	a) ruxsatnoma olish uchun obyektning nomi, maqsadi va manzili koʻrsatilgan ariza. Arizada quyidagilar koʻrsatiladi: yuridik shaxs boʻlgan talabgor uchun — soliq toʻlovchining identifikatsiya raqami (STIR), telefon raqami, elektron pochta manzili (mavjud boʻlganda); jismoniy shaxs boʻlgan talabgor uchun — familiyasi, ismi va otasining ismi, jismoniy shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjat maʼlumotlari yoki jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR), telefon raqami, elektron pochta manzili (mavjud boʻlganda); b) obyekt joylashgan joydagi yerning dengiz sathidan mutlaq balandligi, obyektning balandligi, eng yaqin aerodrom uchish-qoʻnish yoʻlagining ikki tarafi boshlanish joyidan X va U boʻyicha koordinatalari haqidagi maʼlumotlar; v) obyektning 1984-yilgi butunjahon geodeziya koordinatalar tizimi WGS-84dagi geografik koordinatalari (kenglik va uzunlik); g) radioaloqa liniyalari va elektr uzatish liniyalari (shu jumladan, yuqori voltli), radio va elektromagnit nurlanishlar tarqatuvchi obyektlar, elektr yoritish obyektlari, shuningdek, ish jarayonida samoviy hududda elektromagnit, yorugʻlik, akustik, korpuskulyar va boshqa turdagi nurlanishlar paydo boʻlishiga sabab boʻladigan obyektlarning texnik parametrlari; d) radioaloqa liniyalari va elektr uzatish liniyalarining nomlari, elektr uzatish liniyalarining kuchlanishi, aerodromlarning nazorat nuqtasidan 46 km radiusdagi barcha tayanch ustunlarining balandligi va koordinatalari, ular oʻtadigan tuman va viloyatlar, shuningdek, ularning boshlangʻich va tugash punktlari haqidagi maʼlumotlar.

6.	Arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Yig'im undirilmaydi
7.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilganligi uchun undiriladigan yig'im:	Har bir obyektga ruxsatnoma berish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 23 baravariga teng bo'lgan miqdorda yig'im shartnoma tuzmasdan undiriladi. Yig'im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi: 10 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga; 11,25 foizi — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko'rsatganlik uchun, shuningdek, 0,5 foizi Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko'rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga; qolgan mablag'larning 60 foizi — vakolatli organning hisobvarag'iga, 40 foizi — O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi.
8.	Arizani ko'rib chiqish muddati:	15 kun
9.	Ruxsat etishga oid talab va shartlar:	Quyidagilarni loyihalashtirish, qurish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash uchun ruxsatnoma olish zarur: aerodrom nazorat nuqtasidan 46 km radiusda joylashtiriladigan binolar, inshootlar, shuningdek, odamlar, qushlar hamda yovvoyi hayvonlar (kemiruvchilar) ko'plab to'planishiga sabab bo'ladigan obyektlar; aerodrom nazorat nuqtasidan 46 km radiusda joylashtiriladigan radioaloqa liniyalari va elektr uzatish liniyalari (shu jumladan, yuqori kuchlanishli), radio va elektromagnit nurlanishli boshqa obyektlar, shuningdek, yoritish texnikasi obyektlari; aerodrom nazorat nuqtasidan 15 km radiusda joylashtiriladigan portlash xavfi bo'lgan obyektlar (balandligidan qat'i nazar); joylashtiriladigan joyidan qat'i nazar, chiqarib yuboriladigan gazlarni favqulodda yoqish uchun mash'ala qurilmalari; aerodrom nazorat nuqtasidan 46 km radiusda joylashtiriladigan sanoat va boshqa korxonalar hamda inshootlar, parvoz ko'rinishini va aerodrom uchish maydonlarining holatini yomonlashtiruvchi obyektlar; joylashtiriladigan yeridan qat'i nazar, mutlaq balandligi 50 m va undan ortiq bo'lgan obyektlar.
10.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berishda kelishiladigan organlar:	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
11.	Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilish muddati:	Cheklanmagan

12.

Izoh:

1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi joylashtiriladigan joyidan qat'i nazar, mutlaq balandligi 50 m va undan ortiq bo'lgan obyektlar bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va hujjatlar qabul qilingan sanadan boshlab 5 kun muddat ichida kelishadi.

2. Ruxsatnoma Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to'g'risidagi yagona nizomning 4-bobida ko'rsatilgan hollarda va belgilangan tartibda qayta rasmiylashtiriladi.

Har bir obyektga ruxsatnomani qayta rasmiylashtirish uchun mazkur Pasportning 7-bandida nazarda tutilgan yig'imning yarmi undiriladi.

3. Vakolatli organ arizani ko'rib chiqish muddati davomida amalga oshiriladigan o'rganishlarni o'tkazishi uchun xarajatlar (xizmat safari va yo'lda bo'lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar, mehmonxonalarda yashash xarajatlari, transport xarajatlari, kirish vizasini rasmiylashtirish va sug'urta polisini sotib olish xarajatlari) haqiqiy xarajatlar summasi bo'yicha talabgor (ariza beruvchi) tomonidan yozma shartnomaga ko'ra qoplanadi.

4. Arizaning namunaviy shakli

**O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi
Fuqaro aviatsiyasi agentligiga
Parvozlarning xavfsizligiga xavf solishi mumkin bo'lgan faoliyatni
amalga oshirish uchun ruxsatnoma berish haqida
ARIZA**

_____ga
(ariza beruvchining nomi, tashkiliy-huquqiy shakli)
yegishli

_____obyektga
(obyektning nomi va foydalanish maqsadi, joylashgan joyi, balandligi, o'lchovlari)
ruxsatnoma berishingizni so'raymiz.
Shu bilan birga

(ariza beruvchining nomi)
tomonidan mazkur obyekt qurilishi tugagandan so'ng obyektga kunduzgi markirovkalash va yoritish bo'yicha talablar bajarilishi kafolatlanishini tasdiqlaymiz.

Ilova: ruxsatnoma olish uchun talab etiladigan hujjatlar _____ varaqda.

(rahbar) _____
(imzo) _____
(F.I.O.)

Izoh. Jismoniy shaxslar uchun familiyasi, ismi, otasining ismi, fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjat to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

5. Arizaga ilova etiladigan ma'lumotnomaning namunaviy shakli

**Ruxsatnoma olinishi zarur bo'lgan obyektning joylashgan
joyi haqida**

MA'LUMOTLAR

1	Obyekt nomi	
2	Obyektning pochta manzili	
3	Obyekt joylashgan joydagi yerning dengiz sathidan mutlaq balandligi	$N_o =$ m
4	Bino (inshoot) balandligi	$N =$ m
5	Obyekt balandligi	$N =$ m
6	Obyektning eng yuqori qismi	$N =$ m
7	Obyektning 1984-yilgi koordinatalar butunjahon geodeziya tizimi WGS-84dagi geografik koordinatalari (kenglik va uzunlik)	$L =$ _____ m $B =$ _____ m
8	Eng yaqin aerodrom uchish-qo'nish yo'lagining ikki tarafi boshlanish joyidan X va U bo'yicha koordinatalari haqidagi ma'lumotlar	$X = (+) (-)$ m, $U = (+) (-)$ m, $X = (+) (-)$ m, $U = (+) (-)$ m,

Izoh. Mazkur ma'lumotnoma ushbu yo'nalishda tegishli litsenziyaga ega geodeziya tashkiloti tomonidan tayyorlanadi va tasdiqlanib, arizaga ilova qilingan holatda ariza beruvchi tomonidan taqdim etiladi.

6. Ruxsatnomaning namunaviy shakli

Ariza beruvchiga

“O‘zaviatsiya”

agentligi,

(ariza beruvchining nomi)

tomonidan parvozlar xavfsizligiga xavf solishi mumkin bo‘lgan faoliyatni amalga oshirishga ruxsat berish uchun taqdim etilgan materiallarni belgilangan tartibga muvofiqligini tahlil qilib, arizada ko‘rsatilgan

_____ (obyektning nomi, joylashgan joyi, obyektning eng yuqori qismi balandligi va geografik koordinatalari) obyektning joylashishiga ruxsatnoma berish to‘g‘risida qaror qabul qilganini ma’lum qiladi (yoki asoslangan tarzda ruxsatnoma berishni rad etadi).

Ariza

beruvchi

(ariza beruvchining nomi)

parvozlar xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan obyekt qurilishi (uyali aloqa tizimining tayanch stansiyalari machtalarini o'rnatish) tugallangandan so'ng yetti ish kuni ichida "O'zaviatsiya" agentligiga ixtisoslashtirilgan geodeziya tashkiloti tomonidan obyektning yuqori qismi balandligini tasdiqlovchi hujjatlarni, qurilishi tugallangan obyektning komissiya tomonidan qabul qilish dalolatnomalari va sanitariya pasportlarini (zarur hollarda) taqdim etishingiz shart ekanligini ma'lum qilamiz.

Rahbar

(F.I.O.)

(imzo)